

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL



Iyul №7, 2026

Агробизнес, наука и
технология

AGROBIZNES FAN VA TEXNOLOGIYALAR

Agribusiness, science and
technology

№ 083688



ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform &
workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR

Oblomurov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.

Bosh muharrir o'rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Farmonov To'liqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna – i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay'ati:**08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:**

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;

Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;

Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Javlijev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);

Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);

Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);

Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;

Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;

Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);

Akramov Umiddilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;

Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar
universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray
tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

Jurnalning ilmiyligi:

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 30.11.2024-yildagi
№364/5-sonli qarori bilan
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
bo'yicha, 08.05.2025-yildagi
№370/5-sonli qarori bilan
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari
bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy
ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 673 sahifa.

E'lon qilishga 2026-yil 30-iyulda
ruxsat etildi.



JAMSHID SHODMONOV

The growth of online shopping in Uzbekistan and its impact on consumer behavior.....412

ERKABOYEVA JASMINA SAFARALI QIZI

Xususiyl tadbirkorlik: kichik biznesning rivojlanishi va strategik yutuqlari.....426

TASHNAZAROVA SITORA FAXRIDDINOVNA

Sanoat tarmoqlarini rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishning zaruriyati va o'ziga xos xususiyatlari.....432

ERGASHEVA SHAXZODA BAHROM QIZI

Sun'iy intellekt yordamida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish.....442

BAHROM KAMILOVICH AVEZOV

Orol dengizi mintaqasida qashshoqlikni kamaytirish: ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik va institutsional yondashuvlarning ko'p o'lchovli tahlili.....448

MAHMUDOV QUDRATILLO XURSANDBEK O'G'LI

O'zbekiston tijorat banklarida kredit risklarini baholash va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish: xalqaro standartlar va milliy amaliyot.....458

QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

OCHILDIEV UKTAM OLLANAZAROVICH

Surxondaryo viloyatida anor yetishtirishning agroteknologik xususiyatlari.....466

XUDAYQULOV JONIBEK BOZAROVICH, QASHQABOYEVA CHULPANOY TULKUNOVNA, ALISHEROV XASAN ALISHER O'G'LI

Dunyo mamlakatlari va O'zbekistonda sholini muttasil yetishtirishda mineral va organik o'g'itlar qo'llashning hosildorlikga ta'siri.....472

ЧОРИЕВА ЗАРХОЛ ҚОДИРОВНА

Суғориш усуллари ва тартибини анор навлари фенологик фазаларининг ўтиш муддати ва давомийлигига таъсири.....478

MIRZASOLIYEV MIRZAOSIMJON MIRZASOYPOVICH

Oraliq ekin sharoitida turli ekish sxemalarining piyoz hosildorligiga ta'siri.....484

МАВЛОНОВА НАСИБА УМАРОВНА

Оптималь суғориш ва сув танқислиги шароитида ғўзанинг навлараро мураккаб дурагайларида олинган оила, тизма ва навида 1000 донa чигит вази белгисининг шаклланиши.....488

MUXTOROV O'ZBEKXON BURHONOVICH

Davlat mulkchiligi sharoitida qishloq xo'jaligi yerlarini me'yoriy baholashning gibril modeli: obyektiv va bozor signallarini integratsiyalash asosida.....493

YO'LDOSHEV NURBEK ERGASHOVICH, SAYFULLAEVA MAXBUBA ILXOMOVNA

«Alpek» mahalliy antigelmint substansiyasining quyonlarda o'tkir toksikligini klinik, gematologik va biokimyoviy baholash.....501

OCHILOVA MUXAYYO SHAKAR QIZI

Baholash natijalari asosida yer tuzish loyihalarini optimallashtirish.....509





YULDASHOV NURBEK ERGASHOVICH, ZAHRIDDINOVA GAVHAR HASAN

QIZI

Chorvachilik mahsulotlari xavfsizligini ta'minlashda go'sht va go'sht mahsulotlarini veterinariya-sanitariya jihatidan baholash usullari va ilmiy-amaliy ahamiyati.....516

MIRZASOLIYEV MIRZAOSIMJON MIRZASOYPOVICH, SHOKIROV ALISHER

JO'RABOYEVICH

Piyozni oraliq ekin sifatida ko'chatidan ekib yetishtirishda piyoz nav namunalarning rivojlanish bosqichlarini davomiyligi.....521

ТРЯНОВСКАЯ РАНО АБДУСАТТАРОВНА, ИСАМУХАМЕДОВ САЛИХ

ШУКУРОВИЧ

Сезонная динамика клинических показателей Африканских страусов разных возрастных групп в условиях Узбекистана.....526

TURDALIEV JAMOLBEK MO'MINALIEVICH, SANAQULOV SUXROB

FARMONQULOVICH

Teskari Osmos texnologiyasi yordamida minerallashgan kollektor-drenaj suvlarini tozalash va uning tuproq ekologik-meliorativ holatiga ta'siri.....531

BO'RIYEV ABROR NORTAJIYEVICH, NIZOMOV RUSTAM AXROLOVICH

No'sh piyozdan bosh piyoz yetishtirishda ekish sxemalarining iqtisodiy samaradorlikka ta'siri.....539

KAMALOVA NARGIZA MAXAMMADOVNA

Pomidorni kokteyl tipidagi duragay namunalarning hosildorligi.....545

OCHILOVA MUXAYYO SHAKAR QIZI

Yer tuzishni majmuaviy baholashning integrallashgan ko'rsatkichini shakllantirish va hisoblash algoritmi.....552

BOLTAYEV SAYDULLO MAQSUDOVICH, MELIYEVA FAROG'AT SHAVKAT

QIZI

Kuzgi bug'doyning (*Triticum Aestivum* L.) biometrik ko'rsatkichlari va hosil elementlarining shakllanishiga mineral o'g'itlarga qo'shimcha tabiiy adsorbentlarni qo'llashning ta'siri.....567

UZOQOV ADIXAMJON ABRORJON O'G'LI

Qator orasi va ko'chat qalinligining sholi hosili va don sifatiga ta'siri.....571

BOBOBEKOVA SHAROFAT DO'STNAZAR QIZI

Sug'oriladigan yerlarning sho'rlanish dinamikasi va meliorativ holatini baholash.....576

MUNIRA SHAVKATOVNA XUDAYQULOVA

Sabzavot loviyasi (*Phaseolus Vulgaris* L.)ning navlari o'sishi, dukkak shakllanishi va hosildorligiga ta'siri.....582

ESHONQULOV JAMOLIDDIN SAPORBOY O'G'LI, XUDAYBERGENOV NE'MATULLA MATKARIMOVICH, TO'XTAYEVA GULSHAN PO'LOTOVNA

Buxoro-10 (Sardor-1) va Porloq-1 g'o'za navlari ekilgan tajriba dalasi tuprog'ining suv o'tkazuvchanligi.....587

SAYFIDINOV XAYITMUROD ZIYEDULLAYEVICH

Ekish chuqurligi va minutuganak vaznining kartoshka Sante navi Palak hamda ildiz massasiga ta'siri.....591





RAHMANOV ASHRAF KOMILOVICH, MAVLANOV LAZIZ BAXTIYOR O'G'LI	
Qattiq bug'doy nav va tizmalarini laboratoriya sharoitida qurg'oqchilikka chidamliligini baholash.....	596
ABDULLAYEVA HILOLA RAVSHANOVNA, QOSIMOV AXMADJON ABDUQODIROVICH, AYTBAEVA DILFUZA RUSTAMBOY QIZI	
Oltinsimon qorag'at navlari va duragaylarining pishish davrida mevalarining biokimyoviy tarkibini aniqlash.....	600
OCHILOVA MUXAYYO SHAKAR QIZI	
Gis texnologiyalari asosida mavzuli va dinamik xarita-sxemalarni yaratish prinsiplari.....	604
УБАЙДУЛЛАЕВ МАДАМИНЖОН МЎМИНЖОН ЎҒЛИ, МАМАСОЛИЕВ ЗАФАРБЕК КИМСАНБОЕВИЧ, ЭРГАШЕВ НОДИРБЕК ЮЛДАШАЛИЕВИЧ	
Ўрта толали ғўза навларининг ҳақиқий кўчат қалинликларини ўрганиш.....	614
MUSIRMANOV NURALI FAYZULLAEVICH	
O'zbekiston sharoitida qoramol embrionini transplantatsiya qilish natijasida olingan buzoqlar tug'ilgandagi tirik vazn ko'rsatkichlari.....	620
RAVSHANBEK INOMJONOVICH SIDDIQOV, FAZLIDDIN ERGASHOVICH UZAKOV	
O'zbekiston sharoitida mahalliy va xorijiy kuzgi bug'doy kolleksiya namunalarining biometrik ko'rsatkichlari tahlili.....	624
ДЖЎРАЕВ МУҚИМЖОН ЯКУБЖАНОВИЧ, ЁКУБЖОНОВ ФАЗЛИДДИН ХУСНИДДИН ЎҒЛИ	
Такрорий экин сифатида етиштирилган дуккакли экинларнинг поя баландлигига маъданли ўғит меъёрларининг таъсири.....	630
ABDULLAYEVA HILOLA RAVSHANOVNA, SHAYXOVA DILNOZA DILMUROD QIZI	
Isitilmaydigan issiqxona sharoitida yetishtirilayotgan ayrim qulupnay navlarining morfo-biologiyasi.....	639
AVEZOVA ASALXON HAYITBOY QIZI, JUMANIYOZOVA SEVINCH G'ANIY QIZI	
Iqlimiy o'zgarishlar sharoitida g'o'za va mevali daraxtlar so'ruvchi zararkunandalari populyatsiya dinamikasining transformatsiyasi.....	644
GULMURATOVA SEVARA O'RAZALI QIZI, MAMARAXIMOV BUNYOD IKROMOVICH	
Beda nav, namunalarining lalmikor maydonlardagi bargdorlik ko'rsatkichlari.....	657
ДЖУМАНИЯЗОВА ЮЛДУЗОЙ АБДУШАРИПОВНА, ЛАТИПОВА РЎЗАЖОН ШАВКАТОВНА	
Минерал ўғит меъёрларини оқ жўхорининг "Тошкент оқ донлиси" навининг ўсиш кўрсаткичлари ва ҳосилдорлигига таъсири.....	661
KAYUMOV NORBOY SHAKIRJONOVICH, SULTONOV KUDRAT RUSTAMOVICH	
No'xatning agroekologik nav sinash ko'chatzorida nav va tizmalarning xosildorlik va don sifat ko'rsatkichlari.....	668





UO'K: 633.11.631.175.544

O'ZBEKISTON SHAROITIDA MAHALLIY VA XORIJIY KUZGI BUG'DOY KOLLEKSIYA NAMUNALARINING BIOMETRIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI

RAVSHANBEK INOMJONOVICH SIDDIQOV

Don va dukkakli ekinlar ilmiy tadqiqot instituti q.x.f.d., professor

ORCID: 0009-0008-0218-7514

FAZLIDDIN ERGASHOVICH UZAKOV

Don va dukkakli ekinlar ilmiy tadqiqot instituti mustaqil izlanuvchi

ORCID: 0009-0006-0434-0637

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda kuzgi bug'doyning mahalliy va xorijiy kelib chiqishga ega bo'lgan 22 ta kolleksiya namunasi asosiy biometrik va hosildorlik elementlari bo'yicha qiyosiy baholandi. Tadqiqotning maqsadi yuqori mahsuldorlikni ta'minlovchi morfo-biologik belgilarga ega genotiplarni aniqlash va ularni seleksiya ishlariga jalb qilishdan iborat bo'ldi. Namunalarda o'simlik bo'yi 83,1–119,0 sm, boshqoq uzunligi 7,9–10,2 sm, bir boshqoqdagi donlar soni 33,2–59,3 dona, bir boshqoqdagi don vazni 1,6–2,2 g, mahsuldor boshqoqlar soni 328–410 dona/m² hamda hosildorlik 53,6–83,6 s/ga oralig'ida o'zgarishi aniqlandi. Kompleks baholash natijalariga ko'ra KN-5224, WEE/PLN/2IVI, POP-SAZ-13, WVR-00-52 va M33IBWSN-71 namunalari bir nechta mahsuldorlik elementlari bo'yicha standart navlardan ustunlik qildi. Ayniqsa, KN-5224 namunasida boshqoqning yaxshi rivojlanganligi, donlar soni va don vaznining yuqoriligi natijasida 83,6 s/ga hosildorlik shakllangan. Olingan natijalar mazkur namunalarni yuqori hosildor va raqobatbardosh kuzgi bug'doy navlarini yaratishda qimmatli boshlang'ich seleksion material sifatida qo'llash mumkinligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: kuzgi bug'doy, kolleksiya ko'chatzori, biometrik ko'rsatkichlar, boshqoq mahsuldorligi, hosildorlik, seleksiya, genotip, boshlang'ich material.

Аннотация. В данном исследовании была проведена сравнительная оценка 22 образцов озимой пшеницы местного и зарубежного происхождения по основным биометрическим показателям и показателям урожайности. Целью исследования было выявление генотипов с морфобиологическими характеристиками, обеспечивающими высокую продуктивность, и их включение в селекционную работу. Образцы показали, что высота растения составляла 83,1–119,0 см, длина колоса — 7,9–10,2 см, количество зерен в колосе — 33,2–59,3, масса зерна в колосе — 1,6–2,2 г, количество продуктивных колосьев — 328–410 зерен/м², а урожайность варьировала в диапазоне 53,6–83,6 т/га. Согласно результатам комплексной оценки, образцы KN-5224, WEE/PLN/2IVI, POP-SAZ-13, WVR-00-52 и M33IBWSN-71 превзошли стандартные сорта по ряду показателей продуктивности. В частности, образец KN-5224 достиг урожайности 83,6 ц/га благодаря хорошо развитому колосу, высокому количеству зерен и их массе. Полученные результаты указывают на то, что эти образцы могут быть использованы в качестве ценного исходного селекционного материала для создания высокоурожайных и конкурентоспособных сортов озимой пшеницы.

Ключевые слова: озимая пшеница, питомник, биометрические показатели, продуктивность колоса, продуктивность, селекция, генотип, исходный материал.

Abstract. This study compared 22 winter wheat accessions of local and foreign origin for their key biometric and yield parameters. The aim of the study was to identify genotypes with morphobiological characteristics ensuring high productivity and to include them in breeding efforts. The accessions showed that the plant height ranged from 83.1 to 119.0 cm, the ear length was 7.9 to 10.2 cm, the number of grains per ear was 33.2 to 59.3, the grain weight per ear was 1.6 to 2.2 g, the number of productive ears was 328 to 410 grains/m², and the yield varied in the range of 53.6 to 83.6 t/ha. According to the results of a comprehensive evaluation, the KN-5224, WEE/PLN/2IVI, POP-SAZ-13, WVR-00-52, and M33IBWSN-71 accessions outperformed standard varieties across a number of productivity parameters. In particular, the KN-5224 accession achieved a yield of 83.6 c/ha due to a well-developed ear, high grain number, and grain weight. The obtained results indicate that these accessions can be used as valuable initial breeding material for the development of high-yielding and competitive winter wheat varieties.

Keywords: winter wheat, nursery, biometric parameters, ear productivity, productivity, breeding, genotip, initial material.





KIRISH

Bugungi kunda global iqlim o'zgarishi, suv resurslarining cheklanishi va aholi sonining o'sishi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda yuqori hosildor va ekologik barqaror kuzgi bug'doy navlarini yaratishni dolzarb vazifaga aylantirmoqda. Bu vazifani hal qilishda mahalliy va xorijiy genetik resurslarni kompleks baholash hamda yuqori mahsuldorlikka xizmat qiluvchi morfo-biologik belgilarni aniqlash seleksiya jarayonining muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi.

Bug'doyda hosildorlik ko'plab o'zaro bog'liq belgilarning shakllanishi natijasida vujudga keladi. O'simlik bo'yi, boshqoq uzunligi, boshqoqchalar va donlar soni, don vazni hamda mahsuldor boshqoqlar soni kabi ko'rsatkichlar genotipning biologik xususiyatlarini aks ettirib, yakuniy hosildorlikka turlicha ta'sir ko'rsatadi. Shu bois mazkur belgilarni kompleks tahlil qilish seleksiya uchun istiqbolli namunalarni tanlash imkonini beradi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ko'plab tadqiqotlarda bug'doy hosildorligi biror-bir alohida belgiga emas, balki mahsuldorlik elementlarining uyg'un shakllanishiga bog'liqligi qayd etilgan. Ayniqsa, boshqoq uzunligi, boshqoqchalar soni va bir boshqoqdagi donlar soni o'rtasida musbat bog'liqlik mavjudligi aniqlangan. CIMMYT va ICARDA olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda yuqori hosildor navlarda boshqoq arxitekturasining yaxshi rivojlanganligi va donning to'lish darajasi yuqori bo'lishi asosiy ustunlik sifatida qayd etilgan [1].

So'nggi yillarda seleksiya dasturlarida morfologik belgilarni hosildorlik bilan birgalikda kompleks baholashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zamonaviy tadqiqotlarda o'simlik bo'yining o'rtacha bo'lishi, boshqoqning uzun va yaxshi don bog'lashi hamda mahsuldor poyalar sonining yuqoriligi yuqori hosildorlikni ta'minlovchi asosiy omillar sifatida e'tirof etilmoqda. Shuning uchun kolleksiya namunalarini ushbu belgilar bo'yicha baholash yangi navlar yaratishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega [2].

MATERIALLAR VA METODLAR

Tajriba maydonlarini tanlash va variantlarni joylashtirishda "Dala tajribalarini o'tkazish uslubiyatlari" (2007) [3] uslubiy qo'llanmasidan, o'sib rivojlanish davrida fenologik kuzatuv va hisoblash ishlarini olib borishda «Методика Государственного сортоиспытания сэлскохозяйственных культур» (М, Колос, 1964) [4] va olingan natijalarga matematik-statistik ishlov berishda B.A.Dospexovning «Методика поливого опыта» (М, 1985) [5] uslubnomasidan foydalanildi.

TADQIQOT NATIJALARI

Kolleksiya ko'chatzorida baholangan mahalliy va xorijiy kelib chiqishga ega bo'lgan 20 ta seleksion namuna hamda standart sifatida qabul qilingan Chillaki va Umanka navlari asosiy morfo-biologik va mahsuldorlik elementlari bo'yicha qiyosiy baholandi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, o'rganilgan namunalar o'simlikning





morfologik belgilari va hosildorlik elementlari bo'yicha bir-biridan sezilarli darajada farq qildi. Bu esa kolleksiya materialida keng genetik xilma-xillik mavjudligini va seleksiya ishlari uchun qimmatli boshlang'ich materiallar mavjudligini ko'rsatadi.

Standart sifatida qabul qilingan Chillaki navida o'simlik bo'yi 86,0 sm, boshqoq uzunligi 7,9 sm, bir boshqoqda 42,2 ta don, bir boshqoq don vazni 1,7 g, mahsuldor boshqoqlar soni 370 ta/m² hamda hosildorlik 62,9 s/ga ni tashkil qildi. Umanka navida esa mazkur ko'rsatkichlar mos ravishda 90,0 sm, 9,1 sm, 46,3 ta, 1,9 g, 350 ta/m² va 66,5 s/ga bo'ldi. Qolgan namunalarning seleksion qiymati aynan ushbu ikki standartga nisbatan baholandi. Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, eng yuqori kompleks ko'rsatkichlar KN-5224 namunasida qayd etildi. Mazkur namunada o'simlik bo'yi 92,0 sm bo'lib, Chillakidan 6,0 sm (7,0%), Umankadan esa 2,0 sm (2,2%) baland bo'ldi. Biroq uning ustunligi faqat o'simlik bo'yida emas, balki boshqoqning morfologik tuzilishida ham namoyon bo'ldi. Boshqoq uzunligi 10,2 sm bo'lib, bu Chillakidan 2,3 sm (29,1%), Umankadan 1,1 sm (12,1%) uzun bo'ldi. Boshqoq uzunligining ortishi boshqoqchalar sonining 19,7 taga, bir boshqodagi donlar sonining esa 59,3 taga yetishiga xizmat qildi. Bu ko'rsatkichlar Chillaki naviga nisbatan mos ravishda 2,4 ta (13,9%) va 17,1 ta (40,5%), Umankaga nisbatan esa 1,2 ta (6,5%) va 13,0 ta (28,1%) yuqori bo'ldi. Don vaznining 2,2 g ga yetishi va 380 ta mahsuldor boshqoq shakllanganligi natijasida hosildorlik 83,6 s/ga ni tashkil qildi. Bu Chillaki standartidan 20,7 s/ga (32,9%), Umankadan esa 17,1 s/ga (25,7%) yuqori bo'lib, KN-5224 namunasining yuqori mahsuldorlik potensialiga ega ekanligini ko'rsatdi.

Kompleks belgilar bo'yicha yuqori natijalar WEE/PLN/2IVI namunasida ham kuzatildi. Unda boshqoq uzunligi 10,1 sm bo'lib, Chillakidan 27,8%, Umankadan 11,0% uzun bo'ldi. Bir boshqoqda 48,2 ta don shakllanganligi Chillakiga nisbatan 6,0 ta (14,2%), Umankaga nisbatan 1,9 ta (4,1%) yuqori bo'ldi. Bir boshqoq don vazni 2,1 g bo'lib, standartlardan mos ravishda 23,5% va 10,5% yuqori qayd etildi. Shu bilan birga 390 ta mahsuldor boshqoq shakllanganligi hisobidan hosildorlik 81,9 s/ga ni tashkil qildi. Bu ko'rsatkich Chillakidan 19,0 s/ga (30,2%), Umankadan esa 15,4 s/ga (23,2%) yuqori bo'ldi. POP-SAZ-13 namunasi ham seleksiya nuqtai nazaridan qimmatli natijalarni namoyon qildi. Unda boshqoq uzunligi 10,0 sm bo'lib, Chillakidan 26,6%, Umankadan 9,9% uzun bo'ldi. Bir boshqodagi donlar soni 55,1 ta bo'lib, bu Chillakidan 30,6%, Umankadan 19,0% yuqori ko'rsatkichdir. Bir boshqoq don vazni 2,0 g ni tashkil etib, Chillakidan 17,6%, Umankadan 5,3% yuqori bo'ldi. Natijada ushbu namuna 75,0 s/ga hosil berib, standart navlardan mos ravishda 12,1 s/ga (19,2%) va 8,5 s/ga (12,8%) yuqori natija qayd etdi.

Shuningdek, POP-SAZ-74 va M33IBWSN-71 namunalarida ham boshqoq uzunligi, donlar soni va don vazni yuqori bo'lganligi sababli hosildorlik mos ravishda 72,5 va 72,6 s/ga ni tashkil qildi. Bu ko'rsatkichlar Chillaki navidan qariyb 15%, Umanka navidan esa 9% yuqori bo'ldi. Bu holat yuqori hosildorlikning asosiy sababi mahsuldor boshqodagi donlar soni va donning yaxshi to'lish darajasi ekanligini ko'rsatadi.



Tanlab olingan kuzgi yumshoq bug'doy nav namunalarning biometrik tahlil natijalari. 2017-2018 y.

N ^o	Nav va namunalar nomi	O'simlik bo'yi	Boshq uzunligi	Bitta boshqadagi boshqochalar soni	Boshqdagi don soni	Boshqdagi don vazni	1m ² yerdagi maxsuldor boshqalar soni	Hosildorlik s/ga
1	Chillaki s t	86	7,9	17,3	42,2	1,7	370	62,9
2	Umanka s t	90	9,1	18,5	46,3	1,9	350	66,5
3	KN-5224	92	10,2	19,7	59,3	2,2	380	83,6
4	POP-SAZ-74	94,3	9,8	18,7	49,2	2,1	345	72,5
5	M33IBWSN-71	100	9,5	17,6	46,9	2,2	330	72,6
6	UZPIM-2	85,9	8,9	16,2	42,1	1,7	410	69,7
7	WALB-00-14	111,8	9	16,7	38,1	1,8	330	59,4
8	WVR-00-52	102,6	8,5	16,2	39,3	2	390	78,0
9	DATOZ-403	99,2	8,7	17,2	38,2	1,7	365	62,1
10	SDD/ALD/3/NAICOAV-7	107,7	9,3	18	40,9	1,9	328	62,3
11	WEE/PLN/2IVI	101,9	10,1	19,2	48,2	2,1	390	81,9
12	OK27/w663/2/157/2180	119	8,7	16,2	34	1,8	330	59,4
13	548 604	94,1	8,1	16,3	33,2	1,7	335	57,0
14	578821	98,1	8,5	16,2	38,3	1,6	335	53,6
15	000065	100	7,9	15,9	41,3	1,6	400	64,0
16	POP-SAZ-13	108,7	10	18,8	55,1	2	375	75,0
17	POP-SAZ-84	83,1	8,7	16	39,3	1,6	390	62,4
18	POP-SAZ-96	100	10,2	17,7	47	1,8	380	68,4
19	M33IBWSN-24	92,2	8,5	16,5	41,4	1,8	370	66,6
20	M33IBWSN-19	91,4	8,7	16,3	33,5	1,9	365	69,4
21	M33IBWSN-100	99,0	9,2	18	47,3	2	330	66,0
22	M33IBWSN-104	98,0	9,1	17,7	44,7	1,7	338	57,5





Qiziqarli holat WVR-00-52 namunasida kuzatildi. Unda boshqoq uzunligi nisbatan qisqa (8,5 sm) va donlar soni ham ko'p emas (39,3 ta), biroq bir boshqoq don vazni 2,0 g hamda mahsuldor boshqoqlar soni 390 ta/m^2 bo'lganligi sababli hosildorlik 78,0 s/ga ni tashkil qildi. Bu Chillakidan 15,1 s/ga (24,0%), Umankadan esa 11,5 s/ga (17,3%) yuqori bo'ldi. Demak, ayrim genotiplarda donning yaxshi to'lishi va mahsuldor poyalar soni boshqoq uzunligidan ham muhimroq omil hisoblanadi. Aksincha, WALB-00-14, OK27/w663/2/157/2180, 548604 va 578821 namunalarida o'simlik bo'yi juda baland bo'lishiga qaramasdan, boshqoqdagi donlar soni kam bo'lganligi va don vazni past shakllanganligi sababli hosildorlik ham standart navlardan past bo'ldi. Masalan, OK27/w663/2/157/2180 namunasida o'simlik bo'yi 119 sm bo'lib, bu Chillakidan 38,4%, Umankadan 32,2% baland bo'lishiga qaramasdan, bir boshqoqda atigi 34 ta don shakllangan va hosildorlik 59,4 s/ga ni tashkil etgan. Bu Chillakidan 3,5 s/ga (5,6%), Umankadan esa 7,1 s/ga (10,7%) kamdir. Xuddi shunday holat 578821 namunasida ham kuzatilib, mahsuldor boshqoqlar soni va bir boshqoq don vaznining pastligi natijasida hosildorlik atigi 53,6 s/ga bo'lgan, ya'ni Chillakidan 9,3 s/ga (14,8%), Umankadan 12,9 s/ga (19,4%) kam bo'lgan.

Umuman olganda, kompleks tahlil natijalari hosildorlik biror-bir alohida belgining emas, balki o'simlik bo'yi, boshqoq uzunligi, boshqoqchalar soni, donlar soni, bir boshqoq don vazni va mahsuldor boshqoqlar sonining o'zaro mutanosib shakllanishi natijasida yuzaga kelishini ko'rsatdi. Ayniqsa, KN-5224, WEE/PLN/2IVI, POP-SAZ-13, WVR-00-52 va M33IBWSN-71 namunalari standart Chillaki va Umanka navlariga nisbatan aksariyat mahsuldorlik elementlari bo'yicha ustunlik qilib, yuqori hosildorlik potensialiga ega ekanligini namoyon qildi. Shu sababli mazkur genotiplarni O'zbekiston sharoiti uchun yuqori hosildor va raqobatbardosh kuzgi bug'doy navlarini yaratishda boshlang'ich seleksion material sifatida tavsiya qilish mumkin.

XULOSA

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, yuqori hosildorlikka erishishda o'simlik bo'yining o'zi hal qiluvchi omil emas, balki boshqoq uzunligi, boshqoqchalar va donlar soni, bir boshqoqdagi don vazni hamda mahsuldor boshqoqlar sonining o'zaro mutanosib shakllanishi asosiy ahamiyat kasb etadi. Kompleks baholash natijalariga ko'ra KN-5224, WEE/PLN/2IVI, POP-SAZ-13, WVR-00-52 va M33IBWSN-71 namunalari yuqori mahsuldorlik potensialiga ega bo'lib, ularni O'zbekiston sharoiti uchun yangi yuqori hosildor kuzgi bug'doy navlarini yaratishda boshlang'ich seleksion material sifatida qo'llash tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Egamov I.U.. Kuzgi bug'doyning yangi yaratilgan duragay tizmalarni nazorat hamda raqobatli nav sinash ko'chatzorida o'rganish natijalari. Global iqlim o'zgarishlariga chidamli, hosildorligi va sifati yuqori bo'lgan boshqoqli don, dukkakli, moyli, ozuqa ekinlarni parvarishlash istiqbollari xalqaro ilmiy-amaliy Konferensiya materiallari 2022-yil 13-may 60 bet.





2. Yusupov N.X. Yumshoq bug'doy nav va namunalarining qimmatli xo'jalik belgilari va ular o'rtasidagi korrelyativ bog'liqlik. Iqlim o'zgarishi sharoitida lalmi maydonlar uchun qurg'oqchilikka chidamli ekin navlarini yaratish va yetishtirish agrotekhnologiyasi Respublika ilmiy-amaliy anjumani ilmiy maqolalar to'plami 30 may 2022 yil 41-43 betlar.

3. Dala tajribalarini o'tkazish uslubiyatlari, Toshkent-2007, 84-108 betlar.

4. Доспехов Б.А. "Методика полевого опыта (с основами статистической обработки результатов исследований)" М. 1985 г.

5. Методика Государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур» М, Колос, 1964, 39-42 ст.



2026-yil, iyul. №7-son.

Mas'ul muharrir: Beglayev Uchqun

Musahhih: Boltayev Nurali

Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru

Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal

Telefon raqami: +998939018320, +998934393000

Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko'chasi, 2-uy**